



EOC
EUROASIAN
ONLINE
CONFERENCES

ENGLAND CONFERENCE

**INTERNATIONAL CONFERENCE ON
MULTIDISCIPLINARY STUDIES AND
EDUCATION**



Google Scholar

zenodo

OpenAIRE

doi digital object
identifier

eoconf.com - from 2024



INTERNATIONAL CONFERENCE ON MULTIDISCIPLINARY STUDIES AND EDUCATION: a collection scientific works of the International scientific conference – London, England, 2025. Issue 4

Languages of publication: Uzbek, English, Russian, German, Italian, Spanish

The collection consists of scientific research of scientists, graduate students and students who took part in the International Scientific online conference «**INTERNATIONAL CONFERENCE ON MULTIDISCIPLINARY STUDIES AND EDUCATION**». Which took place in London , 2025.

Conference proceedings are recommended for scientists and teachers in higher education establishments. They can be used in education, including the process of post - graduate teaching, preparation for obtain bachelors' and masters' degrees. The review of all articles was accomplished by experts, materials are according to authors copyright. The authors are responsible for content, researches results and errors.





MUHAMMAD YUSUF SHE'RLARIDA SADOQAT TIMSOLI

Shodmonova Gulsevar Shodmon qizi

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

Filologiya fakulteti 1-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: **Gulasal Qayumova Abduraufovna**gulasalqayumova12@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Muhammad Yusufninghayot yo'li, u haqidagi fikrlar va she'rlaridagi sadoqat timsoli, Vatan madhi haqida umumiy tushuncha bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Vatan madhi, do'stlik kuychisi, el- yurt aziz diyor, ota makon sadoqat, elga sadoqat oshiyon, xonish

Muhammad Yusuf ijodining eng asosiy mavzularidan biri — vatanparvarlik va vatanga sadoqatdir. Shoir uchun vatan — muqaddas zamin, xalqning ruhi, tarixiy ildizdir. U "Yurtim shamoli", "Men O'zbekistonlikman", "Elga sadoqat" kabi she'rlarida xalq va yurt uchun sodiqlikni inson hayotining ma'no-mazmuni sifatida ulug'laydi. "Men O'zbekistonlikman, elga sadoqatimdan faxr etaman." O'zbek adabiyotining chinakam takrorlanmas xalq shoiri Muhammad Yusufdir. Uning she'rlarida sadoqat va vatanga bo'lgan sof muhabbat, asosan, birinchi o'rinda turadi. Gap isboti bilan deganlaridek, shoirning "Vatan madhi" she'ridagi misralarni yodga olaylik:

Kimga dasht boshpana, kimgadir gulzor,
Har kimning sig'ingan sajdagohi bor
Har hovuch tuprog'I ko'zga aylab to'tiyo,
Biz uchun qarddon shu aziz Diyor.

Albatta, bu she'r orqali shoir bizga Vatanga bo'lgan qarashlarimizni mutlaqo o'zgartirib yuboradi, ya'ni ijobiy ma'noda yurtimizni sevishni, unga sidqidildan xizmat qilishimizga o'rgatadi. Haqiqatdan ham, Muhammad Yusuf xalqimizning suyuqli shoiri, bu gapimizni "O'zbekiston Qahramoni" – Abdulla Oripov ham isbotlagan va Muhammad Yusuf haqida iliq so'zlarni aytib o'tgan: "Chinakam shoirning qalbida allaqanday sohir qush doimo sayrab turadi, degan gapni ko'p bora eshitgandek, o'sha qush aynan Muhammadjonning, Muhammad Yusufning yuragida oshiyon qurganiga men astoydil ishonganman. Uning ko'zlari ham, chehrasi ham hamisha latif bir kuyni xonish qilganday edi" deb ta'kidlab o'tgan. Muhammad Yusuf she'rlarida o'lmas mavzulardan bir bo'lgan vatan mavzusi asosiy o'rinni egalagan bo'lib. U vatanni qanday qilib balandparvoz gaplariz sevish mumkinligini sherlari orqali ko'rsatib berdi. Yusuf ijodida bu mavzusidagi she'rlar o'zgacha ohang va takrorlanmas misralarda jo bo'lganligi sababli yorqin va ta'sirchan deyishimiz mumkin. YA'ni shoir lirikasida hech kim tasavvur qilmagan lekin mos





keladigan tashbehlarni, o'xshatishlarni ko'ramiz. Bunday o'xshatishlar boshqa hech bir ijodkor she'riyatida uchramasligini shoir asarlarning o'ziga xos badiiy tili deyishimiz mumkin. Masalan, vatan haqida yozgan shoirlarning hech biri hali vatanni onaga, singilga o'xshatgan emas yoki vatanning tol beshikdan boshlanishini faqat shu ijodkorgina o'z asarida ilk bor qo'llagan. Vatanning bog' -rog'larini, so'lim go'shalarini tarannum etganlar ko'pdir. Lekin hech kim vatanni " yuragimning olampanohi" deb uning "bukri bir jiydasining shoxi" ni kuylagan emas. Va yoki "tilimning ostida navvot - zarimsan, sen mening yagona payg'ambarimsan" degan tashbehlarni Muhammad Yusuf she'riyatidagina ko'rishimiz mumkin.

Muhammad Yusuf haqida O'zbekiston Qaxramoni Ozod Sharafiddinov shunday degan edi: "Muhammadjon kamdan-kam tug'iladigan iste'dod egasi bo'lishi bilan birga, kamdan-kam shoirda uchraydigan xislat egasi - shuhratdan qochadigan kamsuqum inson edi. U shuhratning emas, shuhrat uning orqasidan quvib yurardi".

Shuni ham aytish joizki, 1998-yil O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov Muhammad Yusufga "Vatanim" she'ri uchun "Xalq shoiri" unvonini topshirgan. Bu mukofot shoirimiz uchun buyuk qadamlarning boshlanishi bo'lgan desak yanglishmagan bo'lamiz, chunki oz fursatdan keyin she'riyatimizning aziz farzandining bir qancha she'rlari, kitoblari nashr ettirila boshlandi. Yozuvchining yana bir she'ri ya'ni "Vatan" haqida kuylovchi san'at asarini misol keltirsak:

Ey menga ertaklar so'zlagan Zamin
Ergashib izingdan qolmasman sening
O'zgarlar nazdida Bog'i Eraming
Jiydang yaprog'iga olmasman sening
Vatan, qayda bo'lmay, sen hamrohimsan,
Bobolarim yotar sajdagohimsan.

Muhammad Yusuf ijodida "O'zbekiston" she'ri o'zining hissiy bo'yoqdorligi, jozibadorligi bilan va ko'plab insonlarning vatanga bo'lgan cheksiz muhabbatini ifoda etib kelganligi bilan alohida o'rin tutadi. Jumladan:

O, ota makonim, Onajon o'lkam
O'zbekiston, jonim to'shay soyangga
Senday mehribon yo'q, Seningdek ko'rkam,
Rimni alishmasman beda poyangga.

Deb boshlanuvchi bu she'r satrma - satr, bandma - band ta'sirchanligini oshirib boradi. Guvohi bo'lganingizdek birinchi bandda insoniyat sivilizatsiyasining birinchi durdonasi bo'lmish Rimni o'zining keng beda poyasiga teng ko'rmagan shoir ikkinchi bandda yurtining serjilo tabiatini tarannum etib, Qayga borsam suyab boshni tik tut deb, Tog'laring izimdan ergashib yurar- deya kuylaydi. Uchinchi bandda esa shoir bir o'zbek farzandi





sifatida undan ko'rk – hasham, dabdaba begonaligini, uning uchun oilasi bag'ri hammasidan ustunligini quydagicha ta'riflaydi:

Ko'rdim suluvlarning eng faranglarin,
Yo xudbinman yo sodda kasman men
Parijning eng go'zal restoranlarin,

Darhaqiqat, biz tug'ilishimiz bilanoq birinchi eshitadigan kuyimiz- alla bo'lgan, keyingisi esa ertaklar aytib berishgan bizga, ana shu oddiygina hodisalar Muhammad Yusuf uchun balki biz uchun ham muhim sanalardi. Shoirimiz xuddi shu ma'noni anglatmoqchi bo'lgan, menimcha.

“Bir umr kutarman, yo'lingda yonarman,
Sadoqat bu – yurakdan chiqqan qasamyod.”

Bu satrlar sadoqatni faqat so'zda emas, amalda namoyon etish kerakligini anglatadi. Shoir muhabbatda ham, do'stlikda ham soflik va vafodorlikni insoniy komillik belgisi deb biladi.

Xulosa qilib shuni aytamanki, Muhammad Yusuf she'riyati — sadoqat, mehr, vafodorlik va insoniylik madhiyasidir. Shoir o'z asarlarida sadoqatni milliy va umuminsoniy qadriyat darajasiga ko'taradi. U uchun sadoqat — insonning vijdonini, yuragini, or-nomusini ifodalovchi ruhiy holatdir.

Shoir asarlarida sadoqat timsoli ona, vatan, sevgi, do'stlik va xalq obrazlarida mujassam topgan. Shu bois Muhammad Yusuf ijodi o'zbek she'riyatida sadoqatning eng yorqin badiiy ifodalaridan biri sifatida qadrlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Muhammad Yusuf. Tanlangan asarlar. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 2001.
2. Jo'raev, S. Zamonaviy o'zbek she'riyati tahlillari. – Toshkent: Fan, 2015.
3. Karimov, N. O'zbek adabiyotida milliy g'oya va sadoqat motivlari. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2018.
4. Habibullayev, A. Adabiy manbashunoslik va matnshunoslik. – Toshkent: Fan nashriyoti, 2010.
5. Мухаммад Юсуф “Сайланма” шеърий тўплами 2014.
6. Мухаммад Юсуф “Шоир севгиси” шеърий тўплами 2014.

